



MANTIQUIY MASALALAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Ne'matova D.B.

Termiz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Tayanch so'zlar: fikrlash, ko'nikma, ijodiy fikrlash ko'nikmalari, pedagogika, psixologiya, falsafa, o'quvchi, mustaqil fikrlash, mantiqiy masalalar.

Ключевые слова: мышление, умения, навыки творческого мышления, педагогика, психология, философия, студент, самостоятельное мышление, логические вопросы.

Key words: thinking, skills, creative thinking skills, pedagogy, psychology, philosophy, student, independent thinking, logical issues.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni uzlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi -o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, xar ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh, esa ularga baxo bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu - o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki xar ikkala tomonning asosiy



maqsadi aniq natijaga erishishga karatilgan bulib, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh, xarakteri, sharoitga karab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun nafaqat, kompyuter bilan ishlash lozim, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'ladi. Bularning xammasi o'qituvchiga bog'lik.

Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Uzoq yillar davomida bolalarni o'rgangan taniqli psixolog N.S.Leytes ularda oddiy bolalardan yaqqol farq qiluvchi qobiliyatlar mavjudligini aniqladi. Bular birinchidan, mehnatga qobiliyat, ikkinchidan doimiy ravishda yangi bilimlarni va yangi ma'lumotlarni egallashga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'ladi. Bu ehtiyoj gumanitar, texnik, matematik, biologiya bo'yicha turli xarakter va temperamentga ega bo'lgan iste'dodli bolalarda bir xil kuchda namoyon bo'ladi. Keyinchalik tadqiqotlar bolaning aynan bilishga intilish, bilish ehtiyojlari uning aqliy qobiliyatlari darajasining rivojlanishiga eng ko'p aloqador ekanligini ko'rsatdi.

Mashhur psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlaganidek, tafakkur va bilimning o'zaro munosabatini o'rganishda psixologiyaning vazifasi o'quvchilarning faqat o'zlashtirish, o'rganish jarayonini tadqiq qilish, yangi bilimlarni egallashni o'rganish emas, balki o'quvchining yangi bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchisining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mantiqiy o'quv topshiriqlaridan foydalanish o'quvchining o'quv-biluv va ijodiy faoliyatini oshiradi, bolada mustaqil fikr yuritish, xulosa chiqarish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Bolalarga matematikadan ta'lim berish va boshlang'ich ta'limdagi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri - bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir.

Bolalar matematik tushunchalarni rivojlantirish uchun pedagogika, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa bir qator fundamental fanlarda o'rganiladigan xususiyatlar va qonuniyatlarni bilishi kerak.

Mantiqiy masalalarni yechish o'quvchilarga taqqoslash, kuzatishga doir tajribalarni to'plashga, murakkab bo'lmagan matematik qonuniyatlarni aniqlashga, isbot talab etadigan farazlarni o'rta tashlashga imkon beradi. Shu munosabat bilan o'quvchilarda deduktiv mulohaza yuritishga ehtiyoj tug'ilishi uchun sharoit yaratadi. Bunday masalalar o'qituvchiga o'quvchilardagi mehnatsevarlik, maqsadga erishishda tirishqoqlik kabi shaxsiy-axloqiy xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi.



Har bir muammo ma'lum mantiqiy bog'lanishga asoslangan bo'ladi. Bir necha eng soddada mantiqiy masalalar keltiramiz:

1. Otasi va qizi birgalikda 62 yoshda. To'rt yil avval otasi qizidan sakkiz marta katta bo'lgan edi. Ularning har biri hozir necha yoshda?

2. Ahmad va Rahmat ko'p qavatli bir uyda yashashadi va bir litseyda o'qishadi. Ahmad litseyga 20 minutda, Rahmat esa 30 minutda boradi. Agar Rahmat Ahmaddan 5 minut oldin uydan chiqqan bo'lsa, Ahmad necha minutdan keyin unga yetib oladi.

3. Sinfda 20 o'quvchi bor. O'qituvchi ularga 225 dona daftar olib keldi. Har bir o'quvchiga 11 tadan daftar tegadimi? (Masalani faraz qilish yo'li bilan va to'g'ri yo'li bilan ya'ni ikki usul bilan yechish mumkin.)

Mantiqiy masalalarni yechish darsda hamda sinfdan tashqari (to'garak) ishlarda amalga oshirilishi mumkin, o'qituvchi o'zining faniga qiziqsa va bu qiziqishni o'z o'quvchilarida ham tarbiyalay olsa, ularda mehnatsevarlik, masalaga qiziqish, masalani yechishga bo'lgan xohish, masalaning yechimini topishga ishonch kabi xislatlarni tarkib toptiradi.

Adabiyotlar:

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - М.: Педагогика, 1989. – 64 с.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
3. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 2(6).
4. Ruzikulovna, S. D. (2021). Primary education teacher and student teaching activities and system of personal values. European Scholar Journal, 2 (7), 32-33.
5. Shabbazova, D. (2023). Psychological-pedagogical factors of improving the literacy of elementary school students based on a personal value approach. Academia Science Repository, 4(05), 12-19.
6. Ruzikulovna, S. D. (2023). Analysis of the Level of Valuable Approach to Primary Class Students. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 227-230.
7. Shabbazova, D. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirishda shaxsiy qadryatli yondashuv. Monografiya. Termiz-2023. Interpretation and Researches, 1(1).

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar orqali ijodiy fikrlashga o'rgatishning ahamiyati haqida fikr mulohazalar keltirilgan. Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается важность обучения учащихся начальных классов творческому мышлению при решении логических задач. При этом обсуждались педагогико-психологические особенности формирования навыков творческого мышления у учащихся младших классов.

SUMMARY

This article discusses the importance of teaching primary school students to think creatively through logical problems. At the same time, the pedagogical and psychological features of the formation of creative thinking skills in elementary school students were discussed.